



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 31-mart, № 61 (9232)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



JAHON BOZORIDAGI BEQAROR VAZIYATNING MILLIY IQTISODIYOTGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI KO'RILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 2026-yilning birinchi choragida iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ta'minlash hamda jahon bozorida beqaror vaziyatning milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish yuzasidan axborot berildi.

Joriy yilning birinchi ikki oyida sanoat 7,7 foizga, xizmatlar 15,4 foizga o'sdi, 3,5 milliard dollarlik eksport amalga oshirildi va 8,3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi.

Yil boshidan 9 ta viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga respublika byudjetidan qo'shimcha 2,3 trillion so'm va 500 million dollar mablag' yo'naltirildi. "Yangi O'zbekiston qiyofasi" maqomi berilgan 33 ta tuman va 330 ta mahalla uchun mahalliy byudjetlarga 3,9 trillion so'm ajratildi. Og'ir toifadagi 3,7 ta tuman va 903 ta mahallaga jami 3,9 trillion so'm hamda mahalliy byudjetlardan 1,3 trillion so'm, 283 ta "drayver" loyihaga birinchi bosqichda 1 trillion so'm ajratildi.

Yil yakuniga qadar gavjum ko'chalar, sohilbo'yi va yo'lbo'yi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun jami 1,2 trillion so'm, turizm salohiyati yuqori bo'lgan 150 ta mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun 450 milliard so'm, 400 ta

mahallada 50 ta mikrosanoat markazini tashkil qilish uchun 150 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, qisqa vaqt ichida dunyodagi vaziyat keskin o'zgarib, iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligi, tashqi savdo yo'laklari va import narxlariga qo'shimcha bosim yuzaga keltirayotgani ta'kidlandi. Bunday sharoitda har bir tarmoq va hudud rahbari vaziyatni oldindan baholab, turli ssenariylar asosida proaktiv ishlashi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Inflyatsiyani joriy yilda 6-6,5 foiz doirasida saqlab qolish eng muhim vazifalardan biri ekaniga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, jahon bozorida neft narxining keskin qimmatlashi transport va neft-kimyo mahsulotlari tannarxiga ta'sir ko'rsatayotgani, polietilen va polipropilen narxlarida ham o'sish kuzatilayotgani aytiladi. Shu bois asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining importi, transport-logistika masalalari va muqobil yo'laklardan

foydalanish bo'yicha tezkor choralar ko'rish vazifasi qo'yildi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarning xomashyo, bozor va kredit bilan bog'liq muammolarini hozirdan hal etish muhimligi ta'kidlandi.

Ekspertchilar tomonidan ko'tarilayotgan asosiy masalalardan biri transport-logistika ekanini, jahonda ro'y berayotgan voqealar ta'sirida eksport yuk tashishlarida uzilishlar va qimmatlashuv jiddiy xavotir uyg'otayotgani ta'kidlandi.

Shu munosabat bilan qo'shni davlatlar bilan transport va savdo masalalari bo'yicha yaqin hamkorlikni kuchaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarini aviatashuv orqali eksport qilish va tadbirkorlar uchun arzonlashtirilgan tariflarni joriy etish choralarini ko'rish topshirildi.

Xorijiy investitsiyalar masalasi ham atroflicha ko'rib chiqildi. Tahlikali xalqaro vaziyat ayrim loyihalar ijrosiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bildirildi. Shu munosabat bilan amalga oshirilayotgan har bir loyihani muntazam tahlil qilib borish va investorlar bilan kunlik muloqot o'rnatish vazifasi belgilandi.

Bank-moliya sohasida biznesni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan kreditlar dinamikasi ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari joriy raqamlar joriy bo'lishiga qaramasdan, hech bir rahbar xotirjamlikka berilishi mumkin emasligini ta'kidladi. Hozirgi murakkab vaziyatda xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish, ularni yumshatish bo'yicha aniq rejalar bilan ishlash, tarmoqlar va hududlarda muammolarni kutib o'tirmasdan, ularga tezkor yechim topish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Mas'ullarga inflyatsiyani jilovlash, sanoat va eksport ko'rsatkichlarini ta'minlash, investitsiya loyihalarini jadallashtirish, bank tizimi va qurilish dasturlaridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

O'ZA.

Munosabat

MUSHTARAK QADRIYATLARGA TAYANGAN DO'STLIK



O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar umumiy tarixiy ildizlar hamda mushtarak qadriyatlarga tayanadi. Shu jihatdan bu aloqalar uzoq yillik ishonch, hurmat va yaxshi qo'shnichilik an'analariga asoslangan mustahkam tizimdir.

Tojikiston Prezidentining yurtimizga davlat tashrifi cho'g'ida 26-mart kuni imzolangan shartnomalar munosabatlarning yangi sifat bosqichini belgilab berdi.

Ayniqsa, ikki davlat rahbarlarining tashabbusi bilan o'tkazilgan Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi tarixiy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Bu format, odatda, eng yuqori darajadagi strategik va siyosiy hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun tuziladigan yuqori darajali maslahatchi organidir. Ushbu kengash doirasida siyosiy ishonch mustahkamlanib, iqtisodiy loyihalar muvofiqlashtirilmoqda, xavfsizlik va barqarorlik masalalari tizimli hal etilmoqda.



Uchrashuv

INNOVATSION G'OYALAR RO'YOBIGA KENG YO'L



Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva startap loyihalar bo'yicha ish olib borayotgan tashabbuskor yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ochiq va samimiy kechgan muloqotda mamlakatimizda startap ekotizimini rivojlantirish, yoshlarning innovatsion g'oyalari qo'llab-quvvatlash hamda ularni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, joriy yil 11-fevral kuni Prezidentimizning startaplarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tegishli qarorining qabul qilinishi ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Mazkur hujjat nafaqat imtiyozlar tizimini kengaytiradi, balki yoshlarning innovatsion g'oyalari davlat darajasida ishonch va katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Qarorga muvofiq 2030-yilga qadar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan startaplarning sonini 5 mingga yetkazish maqsadi belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda qonunchilik organi sifatida Senatning o'ni alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda HR, ta'lim va marketing sohalarida faoliyat yuritayotgan startapchilar

o'z loyihalarini taqdim qilib, amaliy takliflarini bildirdi. Xususan, ijtimoiy yo'nalishdagi hamda reproduktiv salomatlikka oid tashabbuslar alohida e'tiborga olindi.

Shuningdek, startapchilar duch kelayotgan asosiy muammolar, jumladan, moliyalashtirish, bozorga chiqish va byurokratik to'siqlarni qisqartirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida Yoshlar parlamenti va startapchilar o'rtasida doimiy muloqotni yo'lga qo'yish maqsadida "Digital Leadership Program" (Raqamli yetakchilik dasturi) ni tashkil etishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Fraksiyalar hayoti

DEPUTATLAR FAOLIGI AHOLI MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI



Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealarga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Mahsulotlar eksporti kengaytirilmoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz taklifiga binoan 26-27-mart kunlari Tojikiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga davlat tashrifining ahamiyati haqida so'z bordi. Deputatlar savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va transport bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha erishilgan kelishuvlarga alohida e'tibor qaratdi. Shu bilan birga, 2030-yilgacha o'zaro savdo hajmini sezilarli oshirish rejalarini muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Fraksiya rahbari Aktam Haitov mazkur

tashrif ikki tomonlama hamkorlikning amaliy iqtisodiy kooperatsiya va uzoq muddatli taraqqiyotga yo'naltirilgan sifat jihatdan yangi modelini yaratishda muhim bosqich bo'lganini urg'uladi.

Erishilgan kelishuvlar O'zbekiston — Tojikiston munosabatlari yangi sur'at bag'ishladi, bu esa mamlakatlar taraqqiyoti va xalqlarimiz turmush farovonligini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi aytib o'tildi.

Yig'ilishda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni-ga eksport tartib-taomillarini Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.



Senatorlar — hududlarda

QASHQADARYODA YANGI O'ZBEKISTON QIYOFASI QANDAY SHAKLLANTIRILYAPTI?

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi parlament nazorati doirasida Qashqadaryo viloyatining "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman" maqomi berilgan Qamashi va Yakkabog' tumanlarida aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur infratuzilmani yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rgandi.

O'rganish natijalari qo'mita hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining qo'shma majlisida atroflicha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman" maqomi berilgan hududlarni yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.


O'rganish natijalariga ko'ra, 2025-yilda viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishi kuzatilgan, shuningdek, aholi bandligini ta'minlash va kambag'

allikni qisqartirish borasida muayyan natijalarga erishilgan.

Xususan, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish dasturining ijrosi doirasida 578 ming kishining bandligi ta'minlangan, 29,6 ming ishsiz aholi kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitilgan. Yil boshidan ishsizlik darajasi 5,9 foizdan 4,9 foizgacha, kambag'allik darajasi esa 9,6 foizdan 6,5 foizgacha kamaygan. 60 ta mahalla kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylangan. 53,7 ming oila kambag'al oilalar reestridan chiqarilgan.



KO'NGILOCHAR VA MADANIY HORDIQ MASKANLARI SONI KO'PAYADI



Yangi Toshkentda qariyb **8 GEKTARDAN** iborat maydonda musiqli favvora majmuasi barpo etish rejalashtirilgan.

Loyihaga ko'ra, suv yuzasining umumiy maydoni **6,3** gektarni tashkil qiladigan havzada **1,5** gektar maydonda suv, musiqa va yorug'lik uyg'unligidagi shoularni o'tkazish imkonini beradigan favvora barpo etiladi.

Radiusi **185 metrlik favvora** to'liq doira shaklidagi suv ekranida turli tasvirlarni namoyish etadi.

Shuningdek, yuqori quvvatli lazer nurlari, dinamik suv kompozitsiyalari va turli vizual effektlardan foydalaniladi.

Superfavourada suv **232 METR** ga ko'tariladi va diametri **100 METR** LI suzuvchi platforma hosil bo'ladi.

QASHQADARYODA YANGI O'ZBEKISTON QIYOFASI QANDAY SHAKLLANTIRILYAPTI?

“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish”, “Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash”, “Mahalla loyihasi”, “Biznesga birinchi qadam” dasturlari doirasida 73,2 ming aholi 2,9 trn. so'm imtiyozli kredit mablag'lari hisobiga daromadli mehnat bilan band qilingan.

Viloyatdagi jami 46 ta mahallaga, jumladan, 14 ta tumanning har biridan 2 tadan mahalla hamda qo'shimcha ravishda tuman (shahar) lar hokimlari taklifiga ko'ra 16 ta va viloyat hokimi tashabbusi bilan 2 ta mahallaga “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berilgan.

Ushbu hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida tasdiqlangan “Taraqqiyot va yetakchilik maskani” dasturiga muvofiq yo'l infratuzilmasini sozlashga 46 mlrd. so'm, elektr ta'minotini yaxshilashga 20,2 mlrd. so'm, ichimlik va oqova suv ta'minoti ishlariga 5,1 mlrd. so'm, sug'orish tizimi ta'minoti 17,7 mlrd. so'm, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga 33,6 mlrd. so'm hamda 22 ta ijtimoiy soha obyektida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun

16,5 mlrd. so'm ajratilishi rejalashtirilgan.

Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish natijasida viloyatda 421 ta tadbirkorlik subyekti va 790 ta yangi ish o'rni ochilishi, 11 ta lot “ye-auksion” va 1 044 ta lot “k-savdo” platformalari orqali auktsionga chiqarilishi hamda byudjetga qo'shimcha 8 mlrd. so'm tushum ta'minlanishi maqsad qilingan.

Muhokama jarayonida yo'l qo'yilgan kamchilik va muammolarga hamda ishga solinmagan imkoniyatlarga ham to'xtalib o'tildi. Xususan, ayrim loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilmayotgani, mahalla markazi uchun master-rejalarni ishlab chiqish ishlari ortda qolayotgani hamda infratuzilma bilan bog'liq dolzarb masalalar to'liq hal etilmagani ko'rsatib o'tildi.

Senatorlar belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va aholi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan o'z tavsiyalarini bildirdi.

Majlis yakunida tegishli qaror qabul qilindi.

Senator so'roviga javob

MAQSAD — IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Kobuljon Tursunov iqtisodiyot va moliya vazirligiga ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya ajratish mexanizmini takomillashtirishga oid senator so'rovi yuborgan edi. Vazirlik tilga olingan masalalar yuzasidan so'rovga javob berdi.

Unda qayd etilishicha, mamlakatda aholini uy-joy bilan ta'minlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka tizimi izchil rivojlantirilmoqda. So'nggi yillarda uy-joylar sotib olishda o'n minglab fuqarolarga ipoteka kreditlari va subsidiya mablag'lari ajratilgan.

Vazirlik tomonidan senator so'roviga ko'tarilgan masalalar atroflicha ko'rib chiqilgani va subsidiya mablag'larini ikkilamchi uy-joy bozoriga yo'naltirish iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanini ta'kidlangan. Davlat byudjeti mablag'larini yangi uylar qurilishini rag'batlantirish, bandedlikni oshirish va real sektorni rivojlantirishga yo'naltirish foydaliroq ekanini qayd etilgan.

Shu bilan birga, subsidiya xabarnomasi amal qilish muddatining avvalgi 12 oydan 4 oyga qisqartirilgani fuqarolarni kengroq qamrab olish va mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida amalga oshirilgani bildirilgan. Yangi qurilayotgan uylar bilan bog'liq muammolarni

hal etish maqsadida esa 2026-yildan ipoteka omonati tizimini ishga solish rejalashtirilgani ma'lum qilingan.

Shuningdek, ipoteka kreditlari maksimal miqdori 15 foizga oshirilib, Toshkent shahrida 480 mln. so'm, viloyatlarda esa 380 mln. so'm etib belgilangan. Subsidiya ajratish jarayoni to'liq raqamlashtirilib, arizalarni ko'rib chiqish inson omilisiz amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, subsidiya oluvchilar qamrovini kengaytirish maqsadida Davlat byudjeti hisobidan qo'shimcha mablag'lar ajratilayotgani, pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun alohida qo'llab-quvvatlash mexanizmi joriy etilayotgani ma'lum qilingan.

Javobda ta'kidlanishicha, ipoteka tizimini yanada takomillashtirish, uy-joy bilan ta'minlash ko'lamini kengaytirish hamda aholining turmush darajasini oshirish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi.

“Xalq so'zi”.

TOZA HAVO UCHUN BARCHA MAS'UL!

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi tomonidan tuzilgan ishchi guruh Navoiy viloyatida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini o'rganiganini xabar qilgan edi. Unda ishchi guruh “Navoiyzo't” hamda “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati bilan yaqindan tanishgani haqida ma'lumot berilgan edi.

Muhokama

Ishchi guruh o'rganishlaridan so'ng xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining qo'shma majlisida viloyatda atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holati muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda atmosfera chiqarilgan tashlamalar hajmi 2024-yildagiga nisbatan 2,1 foiz kamaygan. Viloyatdagi 736 ta korxonaning atmosferani ifloslantiruvchi manbalari xatlovdan o'tkazilib, 340 tadan ortiq me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

“Toza havo” tadbirlarida 8 mingdan ortiq avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatilishi natijasida atmosfera havosiga 257 tonna ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining oldi olingan.

Idoralararo hamkorlikni ta'minlash maqsadida viloyatning barcha shahar va tumanlarida ishchi guruhlar shakllantirilib, atmosfera havosiga zararli tashlamalar tashlanishining oldini olishga qaratilgan nazorat tadbirlari o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarori bilan 2026-2027-yillarda Navoiy shahri va unga tutash hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

Qo'shma yig'ilishda amalga oshirilgan ishlar e'tirof etilgani holda xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgani tanqid ostiga olindi. Xususan, ba'zi korxonalarda o'rnatilgan avtomatik monitoring stansiyalari hamda ularga tutash hududlardagi stasionar kuzatuv punktlari Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining elektron platformasiga integratsiya qilinmagan.



Ayrim korxonalar ekologik talablarni bajarmasdan faoliyat yuritmoqda, topshirilgan hisobotlarda atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni kamaytirib ko'rsatilmoganda, barcha tuman va shaharlarda avtomatlashgan kichik stansiyalar o'rnatish ishlari ortda qolgan.

Senatorlar o'z chiqishlarida davlat ekologik nazoratini kuchaytirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi stasionar manbalarda samaradorligi 95 foizdan, shuningdek, yangi foydalanishga topshirilayotgan korxonalar-

da esa 99,5 foizdan past bo'lmagan chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatilishini nazoratga olish, atrof-muhit ifloslanish darajasini prognoz qilish va monitoringini yuritish lozimligi yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Shuningdek, atmosfera havosini muhofaza qilish, uning ifloslanishining oldini olishni ta'minlashda deputatlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurligi ham ta'kidlandi.

Muhokama yakunida tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

XAVFSIZ MUHIT — OSOYISHTALIK KAFOLATI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi A. Eshmuratov hamda Adliya vaziri A. Toshqulov boshchiligidagi ishchi guruh poytaxtni Yashnobod tumanida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish hamda aholi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni joyiga chiqqan holda o'rgandi.

O'rganish

Ishchi guruh tomonidan savdo obyektlari, umumiy ovqatlanish maskanlari, xizmat ko'rsatish shoxobchalari hamda aholi gajvum bo'ladigan boshqa jamoat joylarida o'rnatilgan “tashvish tugmalari”ning texnik holati, ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash darajasida tekzor xizmatlar — ichki ishlar organlari, tez tibbiy yordam va favqulodda vaziyatlar xizmatlari bilan integratsiyasi atroflicha o'rganildi.

Shu bilan birga, ushbu texnik vositalarning real holatida ishlash samaradorligi, ular orqali kelib tushayotgan murojaatlarga tezkor javob qaytarish tizimi, signallarni qabul qilish va qayta ishlash mexanizmlari, shuningdek, mas'ul tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasi tahlil etildi.

O'rganishlar davomida ayrim obyektlarda texnik nosozliklar, qurilmalar samaradorligining pastligi hamda fuqarolar va xodimlarning ularidan foydalanish bo'yicha xab-

ardorligi yetarli emasligi kabi kamchiliklar aniqlandi. Ular yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar, mahalliy hokimlik hamda mas'ul tashkilotlar vakillariga manzilli ko'rsatmalar berildi. Jumladan, texnik vositalarni ta'mirlash va modernizatsiyalash, zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish, “tashvish tugmalari”ni yagona dispetcherlik tizimiga integratsiya qilish hamda mas'ullarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, mahallalarda “xavfsiz hudud” tamoyiliga to'liq o'tish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolar ishtirokini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Ishchi guruh tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida kelgusida ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini ko'tarish, jinoyatchilikni kamaytirish hamda aholi uchun xavfsiz va qulay yashash muhitini yaratishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab olindi.

“Xalq so'zi”.

YOSHLAR MASLAHAT GURUHLARI FAOLLASHADI

Kecha Oliy Majlis Senatida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzuridagi Yoshlar maslahat guruhlari faoliyatini samarali tashkil etishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Seminar

Unda vazirlik va idoralar mas'ullari, YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, mahalliy Kengashlarning Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari hamda Yoshlar maslahat guruhlari a'zolari bilan fikr almashilib, joylarda navqiron avlod bilan bog'liq mavjud muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Tadbir yakunida Yoshlar maslahat guruhlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning institutsional salohiyatini kuchaytirish hamda yig'it-qizlarning jamoatchilik boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar bildirildi.

stondagi vakolatxonasi vakillari tomonidan yoshlar ishtiroki va ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlarning Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari hamda Yoshlar maslahat guruhlari a'zolari bilan fikr almashilib, joylarda navqiron avlod bilan bog'liq mavjud muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Tadbir yakunida Yoshlar maslahat guruhlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning institutsional salohiyatini kuchaytirish hamda yig'it-qizlarning jamoatchilik boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar bildirildi.

“Xalq so'zi”.

DEPUTATLAR FAOLLIGI AHOLI MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

Bu bilan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida”gi Qonunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlariga binoan olib chiqiladigan buyumlar va mahsulotlar ekspozitsiya doir ruxsatnoma berish tartibini bekor qilishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda. Shuningdek, loyiha bilan litsenziyalash va ruxsat berish yo'nalishidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga qo'llaniladigan jarimalar ro'yxatidan ekspozitsiya o'ldiruvchi chiqarib tashlanmoqda.

Mazkur qonun loyihasini obdan muhokama qilidik, — deydi fraksiya a'zosi Dilmurod Ortiqov. — Unda belgilanayotgan normalar mahsulotlar ekspozitsiyani kengaytirish, ekspozitsiyaga mavjud cheklavlarni bartaraf etish, raqobat va ochiq bozor muhitini yaratishga yo'l ochadi. Ushbu hujjat partiyamiz g'oyalarga uyg'un ekanligini e'tiborga olib, uni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarimizni bergan holda, uni qo'llab-quvvatladik.

Yig'ilishda kun tartibidan o'rin olgan boshqa masalalar ham ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Sug'urta savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi hujjat

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida “Reklama to'g'risida”gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasiga qaratilgan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, aholining, jumladan, tadbirkorlik subyektlarining sug'urtaga oid savodxonligini mustahkamlash uchun ommaviy axborot vositalari orqali keng qamrovli targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish zarurati mavjud.

Shundan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasi bilan “Reklama to'g'risida”gi Qonunning ayrim moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish nazarda tutulmoqda. Unga ko'ra, sug'urta savodxonligini oshirishga qaratilgan axborotni ijtimoiy axborot etib belgilash hamda ijtimoiy axborotning reklama beruvchilari sifatida sohalardagi vakolatli davlat

organlarini ham kiritish taklif qilinmoqda.

Qonun loyihasi sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida iste'molchilarni keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta'minlash orqali ularning bu xizmatlardan foydalanishida qulay shart-sharoitlar yaratish, aholida esa sug'urta xizmatlariga ishonchni o'rnatishni nazarda tutadi.

Fraksiya a'zosi Kozim Tojiyev ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirib, uni ishlab chiqishga asoslar yetarli bo'lganini, maqsad va g'oyalari e'zgu ekanini ta'kidlab, Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalarining o'zlariga ham faoliyat reklamasini bilan birga targ'ibotini ham olib borish majburiyatini yuklash taklifini ilgari surdi.

Deputatlar mazkur qonun loyihasini qo'llab-quvvatladik.

Hayotiy masalalar muhokamasi

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida davlatimiz rahbarining taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga davlat tashrifining yakunlari haqida to'xtalib o'tildi.

Ushbu tashrif nafaqat mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi

masala — “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi bo'ldi.

Qonun loyihasi bilan “El-yurt umidi” jamg'armasi stipendiatsiyasini majburiyatlarini aniq belgilash, jamg'arma tomonidan sarflangan mablag'larni undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo kiritishda davlat bo'jini to'lashdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalar kiritish taklif etilmoqda. Shuningdek, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni ishlab chiqish va kelishish tartibini soddalashtirish hamda muddatlarni qisqartirish belgilanmoqda. Xususan, bunday hujjatlar loyihasining jamoatchilik muhokamasi muddatini 10 kun qilib belgilash, 5 kun ichida taklif kelib tushmagan taqdirda loyihasi huquqiy ekspertizaga kiritish imkoniyatini berish, Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatini esa 20 kunga qisqartirish taklif etilyapti.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini aytdi. Shu bilan birga, undagi ayrim norma-

hamda Davlat byudjetidan stipendiatalar uchun ajratilayotgan mablag'larning maqsadli ishtirokiga xizmat qiladi, — deydi fraksiya a'zosi Shuhrat Yaqubov.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Tashabbusli byudjet — muammlarni manzilli hal etish imkoniyati

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida, avvalo, deputatlarining mart oyida saylov okruglarida olib borgan faoliyati yakunlari hamda tashabbusli byudjet doirasida yaratilgan imkoniyatlar tahlil qilindi.

Yangi tartibga ko'ra, 2026-yildan boshlab, har bir deputat o'z saylov okrugida aholi uchun dolzarb bo'lgan, ammo avval g'olib topilmagan ikkita loyihasini tanlab, “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ularni muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu amaliyot joylardagi ijtimoiy muammolarni manzilli hal etish, aholi ishonchini mustahkamlashga xizmat qilayotgani alohida aytiladi.

Fraksiya yetakchisi Ulug'bek Inoyatovning ta'kidlashicha, Prezidentning tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining o'z elektorati bilan hamkorligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi siyosiy qarori alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu parlament faoliyatida yangi va samarali bosqichni boshlab berdi.

Yig'ilishda so'zga chiqqan deputatlar amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Saylov okruglaridagi muammolarni hal etishda tashabbusli byudjet jarayonlari muhim mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda, — deydi fraksiya a'zosi Firdavs Sharipov. — Masalan, biz ko'rib chiqqan 24 ta loyiha asosiy qismi ta'lim, sog'liqli saqlash va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan. Ayniqsa, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari, sog'liqli saqlash, yo'l va irrigatsiya sohalarini aholi uchun eng dolzarb yo'nalishlar bo'lib qolmoqda. Yangi tartib esa yetarli ovoz to'play olmagani, ammo ahamiyatli loyihalarni amalga oshirish imkonini bermoganda. Bu jarayon nafaqat



muammolarni hal etish, balki deputat va saylovchi o'rtasidagi muloqotni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Fraksiya a'zosi Sayyora Imomova ham tashabbusli byudjet doirasida amalga oshirilgan ishlar samarasiga to'xtaladi:

— Ayrim hududlarda bolalarning maktabga borishida xavfsizlik bilan bog'liq muammolar mavjud edi. Piyodalar yo'laklari yetarli emasligi sababli ota-onalar xavotirda bo'lardi. Shu masalani tashabbus sifatida ilgari surib, deyarli to'liq hal qilishga erishdik. Bu kabi amaliy ishlar aholining davlat idoralari-ga ishonchini oshiradi, — deydi deputat.

Yig'ilishda mazkur mexanizmi takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ilgari surildi. Xususan, fraksiya a'zosi Sharofiddin Nazarov loyihalarni tanlash mezonlarini ishlab chiqish, amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda mahalliy Kengashlar faolligi va mas'uliyatini kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala — “Reklama to'g'risida”gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ham qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Loyihada sug'urta xizmatlarini ommalashtirish va aholining ushbu sohaga ishonchini oshirishga qaratilgan normalar nazarda tutilgan.

Deputat Odiljon Iminov mazkur masala yuzasidan fikr bildirib, aholining sug'urtaga ishonchini oshirish uchun faqat bitta qonun doirasida o'zgartirish yetarli emasligini, bu borada tizimli yondashuv talab etilishini aytdi.

Yakunda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Axborotlarning ochiqligi va shaffofligi ta'minlanadi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab “Reklama to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tadbirkorlar va aholining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirishga hamda sug'urta xizmatlarini keng ommalashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy xizmatlar bozori rivojlantirish, jumladan, sug'urta sohasiga aholining ishonchini kuchaytirish va sug'urta xizmatlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

— Ushbu qonun loyihasi bilan sug'urta xizmatlariga oid axborotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, aholining sug'urta savodxonligini yanada chuqurlashtirish hamda mazkur xizmatlarga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan qator normalar nazarda tutilmoqda, — deydi fraksiya a'zosi Noiba Inoyatova.

Muhokama chog'ida qonun loyihasining ahamiyatli jihatlari qayd etilib, qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda fraksiya a'zolarining shu yil 24 — 28-mart kunlari saylov okruglarida aholi bilan o'tkazgan uchrashuvlari yakunlari ham atroflicha ko'rib chiqildi.

Aytilganidek, fraksiya a'zolari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirlarda ishtirok etish, aholi muammolarini o'rganish va yechim topish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Saylov okruglarida o'tkazilgan uchrashuvlar va sayyor qabullar davomida fuqarolarning turli sohalarga oid murojaatlari qabul qilinib, ularning bir qismi joyida hal etilgan, qolgan masalalar bo'yicha esa tegishli choralarda ko'rib belgilab olingan.

Yig'ilishda aniqlangan masalalar bo'yicha parlament so'rovlari yuborish, mas'ul vazirlik va idoralar bilan muhokamalardan o'tkazishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

Aks sado

MUSHTARAK QADRIYATLARGA TAYANGAN DO'STLIK

Amaliy natijalarga e'tibor qaratsak, ikki davlat rahbarlari ishtirokida 10 ta yirik qo'shma loyihaga start berildi. Bular sanoat, to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish va maishiy texnika kabi sohalarni qamrab olgan bilan ahamiyatlidir. Mazkur kelishuvlar hamkorlikning deklarativ emas, balki real iqtisodiy mazmunga ega ekanini ko'rsatadi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarga to'xtaladigan bo'lsak, Tojikiston O'zbekistonning muhim hamkorlaridan biri va mamlakatimizda yetishtirilgan tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish uchun istiqbolli bozor hisoblanadi. Bunda Tojikiston bilan umumiy chegaraning mavjudligi, rivojlangan transport infratuzilmasi, eksport yuklarini yaqin masofaga yetkazib berish

imkoni muhim omil sanaladi va bu transport xarajatlarini nisbatan kamaytirib, eksport hajmini oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, oliy darajadagi uchrashuvlarda ikki davlat o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan muhim hujjatlar to'plami ham imzolandi. Ular iqtisodiyot, sanoat, sog'liqni saqlash, ilm-fan, innovatsiya va turizm kabi qator sohalarni qamrab oldi. Xususan, tovar ayirboshlashni oshirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturlari, elektron sertifikatlashtirish va "elektron ruxsatnomalar" tizimlarini joriy etish, shuningdek, investitsiya kompaniyasi faoliyatini kengaytirish bo'yicha kelishuvlar amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, 2026 - 2028-yillarga mo'ljallangan sanoat, innovatsiya, agros-

anoat, turizm va madaniyat sohalaridagi "yo'l xaritalari" ham tasdiqlandi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan yana bir jihat - parlamentlararo munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilib, mazmunan yanada boyib borayotganidir. Xususan, O'zbekiston parlamenti vakillarining Tojikistonda o'tkazilgan parlament va prezidentlik saylovlarida MDH hamda SHHT missiyalari tarkibida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi o'zaro ishonch, ochiqchilik va demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlashga qat'iy yondashu-



vni tasdiqlaydi. 2025-yil davomida parlamentlar rahbariyati darajasida do'stlik guruhlari hamraisalarining uchrashuvlari va muzokaralari o'tkazilib, qo'mitalar hamda doimiy komissiyalar o'rtasida munozam onlayn maslahatlashuvlar tashkil etildi. Bu jarayonlar qonunchilikni uyg'unlashtirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan yagona yondashuvlarni shakllantirish va parlament diplomatiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston - Tojikiston munosabatlari bugungi kunda Markaziy Osiyodagi barqaror va tez rivojlanayotgan hamkorlik modellari bilan birga aylanmoqda. Eng muhimi, bu aloqalar ikki birodar xalq manfaatiga xizmat qilmoqda.

Jamila BOBANAZAROVA, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARI MUVOFIQLASHTIRILMOQDA

Xorijiy ekspertlar Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi yakunlarini ikki mamlakat strategik sherikligini institutsionalashtirish va mintaqada ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam, deb baholamoqda.

Syuy TAO, Xitoy Davlat kengashi huzuridagi Yevroosiyo ijtimoiy rivojlanish instituti direktori o'rinbosari:

Xitoy ekspert-tahlil doiralarda Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat tashrifiga Markaziy Osiyodagi davlatlarning ichki muvofiqlashuvini mustahkamlash yo'lining izchil rivojlanishi sifatida qaralmoqda. Bu o'rinda gap Markaziy Osiyo mamlakatlarining barqaror va institutsional o'zaro hamkorlik formatlariga o'tishi bilan bog'liq kengroq mintaqaviy dinamikaning namoyon bo'lishi haqida bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari so'nggi yillarda rivojlanish va xavfsizlik masalalari bo'yicha kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqishga intilishlarini namoyish etmoqda, bu esa mintaqada ichida ham, tashqi hamkorlar bilan ham aloqalarni chuqurlashtirish uchun asos yaratmoqda.

Hozirgi bosqich Xitoyda butun mintaqaviy muhit sifat jihatdan o'zgarishining ko'rsatkichi sifatida qaraladigan amaliy hamkorlikka o'tish bilan tavsiflanadi. Qayd etilishicha, ushbu transformatsiya uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan barqaror sheriklik mexanizmlarini mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiy yo'nalishda O'zbekiston - Tojikiston

Aleksandr VOROBYOV, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi, Jamoatchilik diplomatiyasi va jahon siyosatini tahlil qilish markazi direktori, Rossiya xalqaro ishlar kengashi eksperti:

Toshkentda bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar natijalarini ikki mamlakat munosabatlarida o'ta muhim deb baholash mumkin, chunki tashrif davlat tashrifi maqomiga ega edi. Bir tomondan, Prezident Emomali Rahmonning tashrifi O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi vaqtda erishilgan chuqur xarakterini ta'kidlaydi. Tomonlar, asosan, rasmiy Toshkent va shaxsan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faol pozitsiyasi tufayli ko'p narsaga erishdi.

Boshqa tomondan, ushbu tashrif ikki tomonlama munosabatlarni, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada jadallashtirishga yangi va jiddiy turki berdi, garchi tomonlar siyosiy muloqot va xavfsizlik sohasidagi muloqotni unutmagan bo'lsalar-da.

Birinchi, ikki tomonlama munosabatlarni

Said Xolid Amir JAFRI, Janubiy Osiyo tahlili va xalqaro tadqiqotlar markazi direktori (Pokiston):

Ushbu tashrif nafaqat O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlarini yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega.

Tojikiston va O'zbekiston o'rtasida gidroenergetika va suv resurslarini boshqarish masalalari bo'yicha muloqotni izchil chuqurlashtirish alohida ahamiyatga ega. Shuning e'tiborga loyiqlik, bir necha yil oldin ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqaragan mavzular bugungi kunda konstruktiv va o'zaro manfaatli tarzda hal etilmoqda. Bu mintaqada o'zaro ishonch darajasi sezilarli o'sayotganidan dalolat beradi va Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hamkorlikning samarali institutsional mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi Pokiston uchun shimoliy yo'nalishda yangi tranzit va savdo imkoniyatlarini ochadi. Xususan, Markaziy va Janubiy Osiyoni

hamkorligini chuqurlashtirish mintaqaning o'zaro bog'liqligini kengaytirishga xizmat qilishi, infratuzilma va investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochishi ta'kidlangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida yanada yaqin aloqalarni shakllantirish transport yo'laklari va energetika kooperatsiyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Bu Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini ilgari surishdagi manfaatlariga mos keladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Xitoyning sezilarli tranzit salohiyatiga ega mintaqadagi asosiy hamkorlaridan biri sifatida qaraladi, Tojikiston esa mintaqaning energiya konfiguratsiyasida muhim bo'g'in hisoblanadi.

Umuman olganda, Xitoy tomoni O'zbekiston - Tojikiston muloqotining rivojlanishini barqarorlikni mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladigan ijobiy va uzoq muddatli ahamiyatga molik tendensiya sifatida baholaydi.



SAMARALI HAMKORLIK - YUKSALISH POYDEVORI

Bugungi globallashtirish davrida davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, strategik sheriklik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari har qachongidan ham muhim. Shu ma'noda, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning mamlakatimizga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama aloqalarda yangi sahifa ochgan muhim voqeelik sifatida baholanmoqda.

Aytish joizki, tashrif ikki qardosh xalq o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik hamda o'zaro hurmat rish-talarini sifat jihatdan mullaqo yuqori bosqichga ko'tardi. Xususan, tashrif doirasida Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi o'tkazildi va qator muhim hujjatlar imzolandi. Keng qamrovli hamkorlik yo'nalishida yangi istiqbolli loyihalar muhokamasi bo'lib o'tgani, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi e'tiborga loyiqlik.

Ikki davlat rahbarlari ishtirokida qator yirik qo'shma sanoat loyihalari, jumladan, Tojikistonda mebel va charam sanoati korxonalarini tashkil etish, maishiy texnika ishlab chiqarishni kengaytirish, to'qimachilik klasterlarini barpo qilish, O'zbekistonda esa oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilgani nafaqat iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, hududlararo integratsiyani mustahkamlash hamda aholi farovonligini oshirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1 mlrd. dollarga yaqinlashdi, hozirda mamlakatimizda Tojikiston sarmoyasi ishtirokidagi 500 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Muzokaralarda o'zaro savdo hajmini 2 mlrd. dollarga yetkazish bo'yicha aniq vazifalar hamda bu maqsadga erishish uchun "Oybek - Fotihobod" chegaraoildi savdo markazini barpo etish, mahsulotlarni sertifikatlash va "Ye-Permit" raqamli tizimlarini joriy qilish kabi amaliy mexanizmlar belgilab olindi.

Ayniqsa, tashrif davomida start berilgan 10 ta yirik loyiha, jumladan, Tojikistonda maishiy texnika va to'qimachilik quvvatlarini barpo etish, Andijonda sut mahsulotlari, Surxondaryoda esa

metall briketlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi tashabbuslar mahalliy byudjet tushumlarini ko'paytirdi va yangi ish o'rinlari yaratildi. Muzokaralar jarayonida mintaqaviy kun tartibi, suv va energetika xavfsizligi masalalariga ustuvor ahamiyat qaratildi. "Yashil" energetika loyihalarini birgalikda amalga oshirish hamda suv resurslarini boshqarishda raqamli tizimlarni joriy etish bo'yicha erishilgan kelishuvlar butun Markaziy Osiyo barqarorligi uchun xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat, davlat rahbarlarining xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni faollashtirish bo'yicha qat'iy irodasi bugungi murakkab ge-

siyosati sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalariga ham jiddiy yondashilgani xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlik rish-talarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan e'tiborga molik.

Fanlar akademiyalari o'rtasidagi bitim hamda 2026 - 2028-yillarga mo'ljallangan innovatsiyalar sohasidagi chora-tadbirlar rejasi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash borasidagi integratsiyani amalga oshirishda muhim qadam bo'ladi.

Ta'lim sohasi nuqtayi nazaridan qaralganda, O'zbekiston hamda Tojikiston o'rtasidagi hamkorlikning kengayishi oliy ta'lim muassasalari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Bugungi kunda yosh avlodni keng dunyoqarashli, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar sifatida tarbiyalash uchun mintaqaviy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni yo'lga qo'yish va tajriba almashinuvini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Buxoro zamini esa ushbu tarixiy tashrifning muhim manzillaridan biri sifatida alohida o'rin tutdi. Davlat rahbarlarining sharif shaharga tashrifi, tarixiy obidalarini ziyorat qilishi va zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati bilan tanishishi o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Tarix hamda zamonaviy taraqqiyotning uzviy bog'liqligini, milliy meros va innovatsion rivojlanishning uyg'unligini yaqqol namoyon etadi.

Umuman, Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlab, kelajakda keng ko'lami hamkorlik loyihalarining amalga oshirilishiga mustahkam zamin yaratadi. Erishilgan kelishuvlar hamda rejalashtirilayotgan loyihalar esa yaqin istiqbolida o'zining amaliy natijalarini berishi bilan qimmatlidir.

Bahodir MA'MUROV, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1 mlrd. dollarga yaqinlashdi, hozirda mamlakatimizda Tojikiston sarmoyasi ishtirokidagi 500 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

REKLAMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

KONCHILIK FAKULTETI

- Konchilik ishi kafedrası: dotsent (4), katta o'qituvchi (3), assistent (3);
- Konchilik elektr mexanikasi kafedrası: dotsent (2), katta o'qituvchi (3);
- Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (4), katta o'qituvchi (1), assistent (1);
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (4), katta o'qituvchi (6), assistent (8).

ENERGETIKA VA MASHINASOZLIK FAKULTETI

- Mashinasozlik texnologiyasi kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (3), katta o'qituvchi (5), assistent (3);
- Texnologiyalar va jihozlar kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (3), katta o'qituvchi (5), assistent (3);
- Elektr texnikasi va elektr mexanikasi kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (2), katta o'qituvchi (2), assistent (1).

METALLURGIYA VA KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR FAKULTETI

- Metallurgiya kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (4), katta o'qituvchi (5), assistent (1);
- Kimyoviy texnologiyalar kafedrası: kafedra mudiri, professor (3), dotsent (5), katta o'qituvchi (2);
- Matematika va tabiiy fanlar kafedrası: dotsent (5), katta o'qituvchi (1), assistent (6).

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalarini topshiradi. Arizalar e'lon chop etilgan sanadan boshlab bir (1) oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tadi.

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 45-uy, Olmaliq davlat texnika institutining bosh binosi, xodimlar bo'limi. Telefonlar: +99894 407 01 72, +99894 427 62 72.

GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI

QUYIDAGILAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

- Umumiy geologiya kafedrası**
professor - 1 nafar;
dotsent - 1 nafar;
katta o'qituvchi - 1 nafar.
- Mineral resurslar geologiyasi kafedrası**
professor - 1 nafar;
dotsent - 1 nafar;
katta o'qituvchi - 1 nafar.
- Konchilik ishi va texnologiyalar kafedrası**
dotsent - 1 nafar;
katta o'qituvchi - 1 nafar.
- Ekologiya va gidrogeologiya kafedrası**
kafedra mudiri;
dotsent - 2 nafar.
- Sun'iy intellekt va tabiiy fanlar kafedrası**
kafedra mudiri;
dotsent - 1 nafar;

katta o'qituvchi - 1 nafar.

6. Iqtisodiyot va menejment kafedrası
kafedra mudiri;
dotsent - 1 nafar;
katta o'qituvchi - 1 nafar.

Tanlovda ishtirok etadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- Universitet rektori nomiga ariza;
- Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma);
- Oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
- Ilmiy darajava ilmiy unvon to'g'risidagi diplomlar (attestatlarni) nusxasi;
- Ilmiy ishlar ro'yxati (so'nggi 3 yil);
- Malaka oshirganligi to'g'risida hujjatlar nusxasi.

Hujjatlar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel.: 71-209-10-75.

BOSMA NASHRLAR, AVVALO, TAFAKKURNI TARBIVIALAYDI

"Xalq so'zi" gazetasining 24 fevraldagi sonida chop etilgan "Shovqin ichidagi da'vatkor ovoz" sarlavhali maqola keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi, bugungi kun matbuoti, uning kelajagiga befarq bo'lmagan ziyolilar va mushtariylar o'rtasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi. Tahliliy maqolada ko'tarilgan muammolar, ularning yechimi bo'yicha turli tashkilotlar mutasaddilari o'z munosabatlarini bildirdi. Quyida ularni biroz qisqartirishlar bilan e'tiboringizga havola etamiz.

ШОВҚИН ИЧИДАГИ ДАЪВАТКОР ОВОЗ

Matbuotda mavjud muammolar ommaviy fikr yig'inishlarida yildan-yilga kuchayib borib kelayotganini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi shundaki, bugungi kun matbuoti, uning kelajagiga befarq bo'lmagan ziyolilar va mushtariylar o'rtasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi. Tahliliy maqolada ko'tarilgan muammolar, ularning yechimi bo'yicha turli tashkilotlar mutasaddilari o'z munosabatlarini bildirdi. Quyida ularni biroz qisqartirishlar bilan e'tiboringizga havola etamiz.



SOG'LOM AQL BILAN YONDASHISH — DAVR TALABI

Maqola muallifi jamiyat hayotida axborot almashish jarayoni onlayn platformalarga jadal ko'chib o'tayotgani hamda buning mamlakatni strategik rivojlantirishga ta'siri va oqibatlarini xususida tahliliy mushohada yuritgan.

mahsulotlari uchun qog'oz importiga bojlarni yengillatish, bosmaxona va yetkazib berish xarajatlarini qoplashda muassislar majburiyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash, hududlarga tegishli adadni joylardagi bosmaxonalarda chop etib, yetkazib berish mexanizmini yo'lga qo'yish shular jumlasidan.

Haqiqatan ham, bugun davriy matbuot axboriy globallashuv va bozor sharoiti kesishgan murakkab jahdga turlabdi. Biri bosma nashrlarning ijtimoiy-siyosiy mazmunini tubdan o'zgartirishni, boshqasi esa bozor va raqobat muhitiga moslashishni talab etmoqda. Ayniqsa, hozirgi har kim o'z mediaplatformasini yaratishi mumkin bo'lgan davrda matbuotning mustaqil subyekt sifatida barqaror yashab qolishi ko'p jihatdan auditoriyaning talablariga bevosita bog'liq.

Biroq global axborot maydonida milliy manfaatlarini himoya qilish mas'uliyati ham borki, bu tom ma'noda, buyuk tarixiy idlidlarga ega milliy davlatlilikni asrab qolishdek sharaflari missiyani anglatadi.

Maqolada tilga olingan sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlari va amaliy natijalari qarshisida inson shunchaki kuzatuvchi maqomida qolib ketayotgani bilan bog'liq xavotirlar o'rinni, albatta. Bu masala aholining axborotni olish-texshirish-baholash ko'nikmalarini rivojlantirishni, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichida shunga doir yondashuvlarimizni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Aks holda mazkur muammoning yechimini ham Sling o'zidan so'rab o'tirishga to'g'ri keladi.

Albatta, soxta axborot (feyk)lar tarqalishi, tahliliy materiallarning kamayishi, vizual fikrlash va emosional ta'sirning kuchayishi kabi raqamli davrning o'ziga xos xatarlari ham e'tibor markazida turishi lozim. Shubhasiz, bunday vaziyat-

da bosma nashrlar eng ishonchli intellektual mahsulot, tahliliy kontent manbai hisoblanadi. Ilgari deyarli har xonadonga matbuot nashrlari bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ruh ham kirib borgan rost. Zero, tahririylardagi yetuk, fidoiy mutaxassislar chig'irig'idan o'tib, sayqal topgan fikrlar, xato-nuqsonlardan xoli matnlarning savodxonlik, nutq va fikrlash kabi fazilatlarini tarbiyalashdagi o'rni beqiyos. Bu bosma nashrlarning yuksak qadr-qimmatini ta'minlaydigan asosiy jihatlardan. Afsuski, ana shunday yaxshi an'anani munosib davom ettirish, o'z qadriyatlarimiz tizimida unga joy berish borasida jiddiy kamchilikka yo'l qo'ydik.

Yana bir jihat — aholi gavjum joylarda kundalik nashrlarni bepul tarqatish tajribasi amaliyotda bor, albatta. Ammo yuksak adabiy did va intellektual salohiyat mahsuli bo'lgan bosma nashrlarning doimiy ravishda bepul tarqatilishi har doim ham o'zini oqlamasligi mumkin. Bu, avvalo, jamiyatning ishonchli va sifatlil axborotga munosabatiga bog'liq.

Shu bois bugungi kunda bosma nashrlar faoliyatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir etayotgan bosmaxona va yetkazib berish muammosiga eng afzal yechimlarni topish muhim. Bunda, avvalo, zarurati to'g'ri baholash, qolaversa, imkoniyatlarni aniqlash kerak.

Xo'sh, zarurat bormi? Shubhasiz, bor! Imkoniyat bormi? Izlaganga, albatta, bor. Masalan, aynan matbuot nashrlari va kitob

Alisher SA'DULLAYEV, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori.

TEZKOR YETKAZISH XARAJATLARINI OSHIRADI

Tahliliy maqolada bayon etilgan fikrlar, hozirgi kunda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular masalaga jiddiy yondashuvni taqozo qilishi bilan e'tiborga molik.

Qayd etilganidek, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, aholining barcha qatlamini, ayniqsa, yoshlarni keng qamrab olmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida qisqa videoroliklar orqali axborot va ma'lumotlarni yetkazish amaliyoti tobora ommalashib borayotgani ayni haqiqat. Biroq bu holat ayrim vaziyatlarda aholi, ayniqsa, yoshlarning gazeta va kitob mutolaasiga qiziqishi pasayishiga, shuningdek, ma'lumotlarni mustaqil va chuqur izlash ko'nikmalarining cheklanishiga olib kelayotgani ham kuzatilayotir.

Shu bilan birga, bugungi axborot makonida iste'molchining talablari keskin o'zgarganini ham inobatga olish zarur. Agar gazeta sahifalarida taqdim etilayotgan materiallar o'quvchi uchun haqiqatan dolzarb, tahliliy va amaliy ahamiyatga ega bo'lsa, iste'molchi hech ikkilanmasdan obuna bo'ladi va zarur ma'lumotni izlab topadi. Demak,

obunaning asosiy omili — mazmun sifati va ishonchdir. Hozirgi sharoitda elektron platformalar, axborot saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklar deyarli real vaqt rejimida tarqatilmog'uda. Agar shu axborot gazeta va kitob mutolaasiga ega bo'lsa, iste'molchi hech ikkilanmasdan obuna bo'ladi va zarur ma'lumotni izlab topadi. Demak,

obunaning asosiy omili — mazmun sifati va ishonchdir. Hozirgi sharoitda elektron platformalar, axborot saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklar deyarli real vaqt rejimida tarqatilmog'uda. Agar shu axborot gazeta va kitob mutolaasiga ega bo'lsa, iste'molchi hech ikkilanmasdan obuna bo'ladi va zarur ma'lumotni izlab topadi. Demak,

handa obunachilarning soni keskin kamayishiga olib keladi. "O'zbekiston pochta" AJ tomonidan davriy matbuotni barqaror va barcha obunachilar uchun maqbul narxlarda yetkazib berish maqsadida logistika jarayonlari optimallashtirilgan holda tashkil etilgan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, davriy nashrlarga obuna bo'lish va ularni yetkazib berish masalasi iste'molchi tomonidan mustaqil ravishda tanlanib amalga oshirilmoqda. Iste'molchi o'z ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq nashrlarga obuna bo'lib, zarur axborotni o'z vaqtda va qulay tarzda olish imkoniga ega chiqmoqda. Bu esa bozor tamoyillari va zamonaviy axborot muhitiga moslashuvning yaqqol ifodasi hisoblanadi.

"O'zbekiston pochta" AJ davriy bosma nashrlarni barqaror va maqbul narxlarda yetkazib berish bo'yicha o'z zimmasidagi vazifalarni bajarishda davom etadi. Shu bilan birga, axborot bozorida zamonaviy tendensiyalar va iste'molchi talablarini inobatga olgan holda barcha manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv hamkorlikka tayyor ekanini ma'lum qiladi.

Alisher FAYZULLAYEV, "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati bosh direktori.

2026-2027-yillar davomida mamlakatimizning har bir hududida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlaydigan 14 ta "yashil" texnikum faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV
2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. O'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.
Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyati kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6



HAMYURLARIMIZ — "FIFA SERIES" MUSOBAQASI G'OLIBI

FIFA kunlari doirasida poytaxtimizda o'tkazilgan "FIFA Series" musobaqasida O'zbekiston milliy terma jamoasi g'olib bo'lib, joriy yilgi jahon chempionatiga yaxshi tayyorgarlik ko'rayotganini amalda isbotladi.

Futbol

"Paxtakor" va "Bunyodkor" yashil maydonlarida turli mintaqalarning 4 ta terma jamoasi — O'zbekiston (OFK), Gabon (KAF), Trinidad va Tobago (KONKAKAF), Venesuela (KONMEBOL) o'zaro bahs olib bordi. Dastlabki o'yinda Fabio Kannavaro murabbiyligidagi terma jamoamiz Gabon vakillari bilan kuch sinashdi. Uchrashuv futbolchilarimiz uchun omadsiz boshlandi. Qarshi hujumda gol o'tkazib yuborgan yurtdoshlarimiz tezda javob qaytarishdi. E. Shomurodov 13-daqiqada hisobni tenglashtirdi. Shundan keyin ikki milliy terma jamoa ham ochiq futbol namoyish qilib, futbol muxlislarini hayajonda ushlab turishdi. Aytish joizki, 1-bo'lim futbolchilarimiz uchun qiyin kechdi va bir vaziyatda J. O'rovov jamoamizni muqarrar golland qutqarib qoldi. Tanaffusdan keyin F. Kannavaro kerakli ko'rsatmalar olgan futbolchilarimiz ketma-ket hujumlar orqali gollandliklar shoshirib qo'ydi. 59-daqiqada aynan O'rovov debiut o'yinida burchak zarbasidan keyin gol urib, terma jamoamizni oldinga olib chiqdi. Qo'shimcha vaqt davom etayotgan daqiqalarda A. Odilov hisobni 3:1 ko'rinishiga keltirdi.

Kecha musobaqaning hal qiluvchi bahsi o'tkazildi. 1-turda g'alaba qozongan O'zbekiston va Venesuela milliy terma jamoalari o'zaro bellashuv, musobaqa g'olibini aniqlab berdi. Uchrashuvning birinchi taymida futbolchilar ehtiyotkorona harakat qildilar. Ikkinchi bo'lim esa futbolchilarimiz tomonidan uyushtirilgan qator hujumlar bilan yodda qoldi. Raqib darvozaboni taym davomida 3-marta jamoamizni muqarrar golland qutqardi. R. Ashurmatov, O. Shukurov va E. Shomurodov zarbalarini qaytargan Venesuela posboni bo'limning eng yaxshi futbolchisi bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

Shu tariqa uchrashuv asosiy vaqtida darvozalar daxisizligi saqlab qoldi. Musobaqa reglamentiga ko'ra, uchrashuvda durang qayd etilsa, bellashuv g'olibi penaltilar seriyasida aniqlanishi kerak edi. Seriyada esa omad mezbonlarga kulib boqdi. Biznikilar beshta zarbaning barchasini golga aylantirgan bo'lsa, venesuelaliklarning bir zarbasini A. Ne'matov qaytarib, yurtdoshlarimiz g'alabasini ta'minladi — 5:4.

Turnirning ikkinchi bahsida Trinidad va Tobago hamda Gabon terma jamoalari o'zaro kuch sinashdi. Asosiy vaqtda 2:2 hisobida jangovar durang qayd etilgan, navbat penaltilar seriyasiga berildi. Futbol lotereyasida omad afrikaliklarga kulib boqdi, hisob — 2:3.

"FIFA Series" nizomiga binoan, penaltilar seriyasida yutgan jamoaga 2 ochko berilishi evaziga F. Kannavaro shogirdlari musobaqada 5 ochko to'pladi va ketma-ket uchinchi kichik turnirda g'olib bo'ldi. Jamoamiz 2025-yilning sentabr oyida Toshkentda o'tgan "CABA Nations Cup", noyabr oyida "Al Ain Cup" kabi o'rtoqlik maqomidagi musobaqalarda ham zaif quchqan edi.

Endi futbolchilarimiz keyingi yig'inni may oyida o'tkazib, jahon chempionatiga tayyorgarlikning so'nggi bosqichini Toshkentda boshlab, Kanadaga safar qiladi va 1-iyun kuni Edmonton shahrida mezbonlarga qarshi o'rtoqlik o'yinida maydonga chiqadi.

Sunnatilla ISLOMOV ("Xalq so'zi").

Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi fondning "Meros-news" axborot xizmati rahbari, taniqli shoir, publitsist va tarjimon **Karim BAHRIYEV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

Xalq so'zi
Nardnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-6784